

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING NUTQIY MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li

*Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

G'aniyeva Shaxlo Jahongir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari sharoitida talabalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari tadqiq etiladi. Masofaviy va aralash ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ekran ortida nutq so'zlash madaniyati va raqamli muloqot odobi masalalari tahlil qilingan. Maqolada an'anaviy nutq madaniyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan uyg'unlashtirish strategiyalari bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, masofaviy ta'lim, raqamli etika, filologik ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Пардаев Сирожиддин Шокир угли

*преподаватель Самаркандского государственного педагогического института,
доктор философии по филологическим наукам (PhD),*

Ганиева Шахло Жахонгир кизи

*Студентка Самаркандского государственного
педагогического института*

***Аннотация.** В данной статье исследуются особенности и проблемы развития речевой культуры студентов в условиях цифровых образовательных технологий. Анализируются вопросы формирования коммуникативной компетенции будущих специалистов в среде дистанционного и смешанного обучения, культуры публичных выступлений перед экраном и этикета цифрового общения. В статье выдвигаются научно-методические рекомендации по стратегиям интеграции традиционной культуры речи с современными информационно-коммуникационными средствами.*

***Ключевые слова:** цифровое образование, культура речи, коммуникативная компетенция, дистанционное обучение, цифровой этикет, филологическое образование, инновационные технологии.*

ISSUES OF IMPROVING STUDENTS' SPEECH CULTURE IN THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li

Teacher at Samarkand State Pedagogical Institute,

Doctor of Philosophy in Philology (PhD),

G'aniyeva Shaxlo Jahongir qizi

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

***Abstract.** This article examines the specific characteristics and challenges of developing students' speech culture within the framework of digital educational technologies. The issues of forming communicative competence of future specialists in distance and blended learning environments, the culture of public speaking behind the screen, and the etiquette of digital communication are analyzed. The article proposes scientific and methodological recommendations for strategies to integrate traditional speech culture with modern information and communication tools. The research emphasizes that the digital transformation of higher education requires new*

approaches to professional speech training for future pedagogues to ensure high-quality philological education.

Keywords: *digital education, speech culture, communicative competence, distance learning, digital etiquette, philological education, innovative technologies, screen-presence.*

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki muloqot madaniyatining yangi shakllarini o'zlashtirishni ham taqozo etmoqda. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb strategiyalaridan biri – bo'lajak mutaxassislarning har qanday sharoitda, jumladan, raqamli muhitda ham o'z fikrini ravon va mantiqiy etkazib bera olish kompetensiyasini shakllantirishdir.

Bugungi kunda “filologik ta'lim sifati” tushunchasi faqatgina nazariy bilimlarni o'z ichiga olmaydi, balki raqamli platformalar (Zoom, Google Meet, ijtimoiy tarmoqlar) orqali amalga oshiriladigan professional muloqot madaniyatini ham qamrab oladi. Shu sababli, talabalarning nutqiy madaniyatini raqamli muhit talablariga moslashtirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas vazifalaridan biridir.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaydiki, “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim” [1:61]. Ta'lim va tarbiyada ona tili fani ana shu vazifaning asosiy qismini o'z zimmasiga oladi. “Ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir [2:3]. “Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, nutq o'stirish — bu tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini) faol amaliy o'zlashtirishdir. Ayniqsa, filologik ta'limda talabalarning nutqiy faoliyati uchun bir necha shartga rioya qilish zarur. Birinchidan, kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun real ehtiyoj bo'lishi kerak. Ikkinchidan, har qanday nutqning boy mazmuni va materiali bo'lishi lozim.”

“Nutq o'stirishning muhim shartlaridan biri – muloqotga ehtiyoj sezishdir. Raqamli ta'lim muhitida ushbu ehtiyoj virtual auditoriya bilan muloqot qilish,

videokonferensiyalarda o'z fikrini isbotlash jarayonida yuzaga keladi. Ikkinchi shart esa nutq materialining boyligidir. Talaba raqamli resurslardan (onlayn kutubxonalar, ilmiy bazalar) foydalanish orqali o'z nutqi uchun boy va asosli material to'playdi."

Nutq fikrni bayon etish vositasigina bo'lib qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosiy vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materiallariga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilgani shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa fikrni ifodalab berib bo'lmaydi" [3:306]. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadiga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga talabalarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda, nimadir yangilik qo'shadi. "Odam nutq yordamida o'zining fikrini, his tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi".[4:8] Sharoitga qarab nutq turlari turli holda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak, tilak, ba'zan chaqiriq – murojat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishga ega.

Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosiy sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ona tili o'qitish jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.[5:10]

Raqamli madaniyat – bu inson faoliyatida raqamli texnologiyalarning ustuvor o‘rin egallashi, axborotning elektron shaklda yaratilishi va almashinuvi bilan bog‘liq madaniy jarayonlar majmuidir. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- axborotni tezkor almashish;
- virtual muhitda muloqotning kengayishi;
- raqamli kompetensiyalarning zaruriy ko‘nikmaga aylanishi;
- internet va mobil texnologiyalarning hayot tarziga integratsiyasi;
- ijtimoiy tarmoqlarning kommunikativ makonga aylanishi.

Bugungi kunda raqamli madaniyat shaxsning faqat texnik bilimni emas, balki onlayn muhitda xulq-atvori, muloqot qilish odobi, media madaniyati va axborot xavfsizligi bo‘yicha savodxonligini ham qamrab oladi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik nutq madaniyati odob-axloq me‘yorlari, hurmat, muomala madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. An‘anaviy muloqotda:

- murojaatlar tartibi;
- hurmat-izzat ifodalovchi so‘zlar;
- nutqning ravonligi;
- muomala odobi kabi tushunchalar muhim hisoblanadi.

Raqamli muhit esa muloqotning yangi shakllarini yaratdi. Onlayn chatlar, messenjerlar, qisqa yozishmalar, emoji va giflar orqali muloqot an‘anaviy nutq me‘yorlaridan farq qiladi.

Zamonaviy kommunikatsiya jarayonida o‘zbek tilida muloqot madaniyatiga quyidagi o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi:

Tilning ixchamlashuvi (qisqa shakllar): “rahmat” → “raxmat”, “boraman” → “boraman”, “man”, “sizni” → “sizni” kabi).

Emojilar orqali hissiyotni ifodalash.

Transliteratsiya (lotin-kirill aralash shakllar) ko‘payishi.

Inglizcha qarz so‘zlarning kengayishi (online, post, content, like).

Bu holatlar tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bo‘lsa-da, me‘yoriy til madaniyati uchun ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Internetdagi muloqot ko‘pincha tez va

qisqa bo'lgani sababli ko'plab orfografik me'yorlar buzilishi kuzatiladi. Nutq madaniyati nuqtayi nazaridan quyidagi jihatlar muhim:

Savodlilik va imlo me'yorlariga rioya qilish.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab foydalanuvchilar imlo qoidalariga e'tibor bermasliklari natijasida umumiy madaniy daraja pasayishi mumkin. Shuning uchun o'zbek tilining amaldagi imlo qoidalariga amal qilish raqamli madaniyatning bir qismi bo'lib bormoqda.

Raqamli muloqotda odob-axloq qoidalari – netiket – muhim o'rin tutadi.

O'zbek jamiyatidagi an'anaviy hurmat, izzat, muloyim muomala onlayn muhitda ham saqlanishi kerak. Masalan:

kattalarni hurmat bilan murojaat qilish;

haqoratli so'zlardan tiyilish;

provokatsiyalardan uzoq turish;

yolg'on axborot tarqatmaslik.

Raqamli madaniyatda axborot savodxonligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish madaniyati ham o'zbek tilida muloqotning ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. Raqamli muhit o'zbek tilining mavqeini kengaytirib, yangi sohalarga kirib borishiga sabab bo'lmoqda:

- elektron hukumat tizimlari;
- raqamli xizmatlar;
- ta'lim platformalari;
- onlayn auditoriyalar;
- blogerlik va kontent ishlab chiqarish.

Shuningdek, internet o'zbek tilining yangi lug'aviy qatlamini shakllantirmoqda (follower – obunachi, repost – qayta ulashish, kontent – mazmunli material ifoda vositalarini boyitmoqda kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ammo bu jarayon nazorat, me'yorlashtirish va lingvistik madaniyatni saqlashni talab qiladi.

O'zbek tilida muloqot madaniyatini raqamli muhitda rivojlantirish yo'llari:

1.Raqamli savodxonlikni oshirish – maktab va oliy ta'limda raqamli madaniyat asoslarini o'rgatish.

2. Til me'yorlariga rioya etish bo'yicha ko'rsatmalar – blogerlar, ommaviy axborot vositalari, kontent yaratuvchilar uchun metodik tavsiyalar.

3. Raqamli lug'atlar va til korpuslarini rivojlantirish – imlo, sinonim, tarjima lug'atlarini takomillashtirish.

4. Onlayn etikani targ'ib qilish – ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqot kampaniyalarini yo'lga qo'yish.

5. O'zbek tilining standartlashtirilgan raqamli platformalarini yaratish – ovozli yozib olish, avtomat tarjima, matn tekshirish xizmatlari.[6:205]

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya davrida talabalarning nutqiy madaniyatini takomillashtirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning uzviy qismi hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli muhitda nutq madaniyatini shakllantirish — bu shunchaki texnik ko'nikma emas, balki bo'lajak mutaxassisning madaniy va intellektual salohiyatini belgilovchi strategik vazifadir. Tavsiya etilgan metodik yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarida ona tili va nutq madaniyati mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch – T. “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008-yil 61-bet.
2. G'ulomov A. Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari, – T. “O'qituvchi” 1995-yil 3-bet.
3. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya “O'qituvchi” – Toshkent 1967 yil 306-bet.
4. G'ulomov A. Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. – T. “O'qituvchi”, 1995-yil. 8-bet.
5. Madibekova B. Nutq o'stirishda ijodiy ishlar o'tkazish metodikasi. Magistrlik diss. – Andijon, 2010. 10-bet.
6. Komilova Z.X., Shahobiddinova M.N. Raqamli madaniyat va o'zbek tilida muloqot madaniyati. // “Modern educational system and innovative teaching solution” xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Farg'ona: FarDU, 2026. – 205-bet.